



ISSN: 3060-4613

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI




№06/2025

M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga  
ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 74 sahifa,  
4-iyun, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Mizayeva Faroxat Odiljonovna – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vaziri

Qirg'izboyev A.K – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q.M - iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. - falsafa fanlari doktori professor

G'afurov D.O. - falsafa fanlari doktori (PhD)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F. O. - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. - falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A.T. - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R.R. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M.A - Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmasi boshlig'inining birinchi o'rinnbosari

Xudayberganov N.A. - Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, bilogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Mizayeva Farokhat Odiljonovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

Qirg'izboev A.K – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiiev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K.M. - Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. - Doctor of Philosophy, Professor

Gafurov D.O. - Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. - Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. - Doctor of Philosophy, Professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. - is a Professor of Toshkent State University of Economics

Ashurov R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology

Panjiyev M.A - First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N.A. - Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali Oliy attestatsiya rayosatining komissiyasining 08.05.2025 yildagi №370/5 qarori bilan Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Psixologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy nashrlar ro'yxatiga kiritilganligini ma'lum qilamiz.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiyasi (25-05-2025 y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (07-05-2025 y., №5/6); OAK Rayosatining qarori (08-05-2025 y., №370/5).

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali

26.06.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310



# MUNDARIJA

O'SMIRLARDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	10
<b>Umarov Baxriddin Mengboyevich, Jabborova Zilola Baxtiyor qizi</b>	
ONA VA FARZAND MUNOSABATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	16
<b>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</b>	
PROFESSOR-O'QITUVCHILAR IMIJINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	21
<b>Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna</b>	
OMMAVIY MADANIYATNI BOLALAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRINI PSIXOLOGIK SHARTLARI.....	29
<b>Umarova Navbahor Shokirovna</b>	
PEDAGOGIK FAOLIYATDA KASBIY SO'NISH JARAYONINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI.....	33
<b>Botirova Dilafro'z Bozorovna</b>	
BULLING XULQ-ATVORINING NAMOYON BO'LISHI VA UNING MAKTAB O'QUVCHILARGA BO'LGAN TA'SIRI.....	39
<b>Tillayeva Nodira Iskandar qizi</b>	
TASHKILOTDA MOBBING VA UNING XODIMLAR PSIXOEMOTSIONAL SALOMATLIGIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA'SIRI.....	42
<b>Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi</b>	
OILAVIY MUNOSABATLARDA YETAKCHILIK MUAMMOLARI.....	46
<b>Abdumatalova Madina Abdumalik qizi</b>	
ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARNING IJTIMOIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	49
<b>Abdurahmanova Durdona Dilshodjon qizi</b>	
SHAXSDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI.....	54
<b>To'rabyev Azamat Muxamadullayevich</b>	
BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY MOYILLIKNING NAMOYON BO'LISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR.....	58
<b>Saidova Nargiza Ismatulla qizi</b>	
PSIXOLOGIYA TALABALARI AMALIYOTI JARAYONIDA KASBIY REFLEKSIYA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.....	62
<b>Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna</b>	
OTA-ONALARNING RAQAMLI VOSITALARDAN FOYDALANISH USLUBI VA BOLALARDA INTERNET QARAMLIGI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI.....	67
<b>Maxammadjonov Sherzodbek Ravshanbek o'g'li</b>	
PSIXOLOGIYADA IJTIMOIY MOTIVLAR MUAMMOSIGA BO'LGAN YONDASHUVLAR.....	71
<b>Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li</b>	
OILAVIY ZIDDIYATLARNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI VA ULARNI HAL ETISH USULLARI....	74
<b>Raximova Gulxayo Alisherovna</b>	
O'SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK MANBALARDAGI TAHLILI.....	79
<b>Matyakubova Shohista Odamboy qizi</b>	
BOSHLANG'ICH MAKTAB YOSHIDAGI (6-8 YOSH) CHAP QO'LI DOMINANT BO'LGAN BOLALARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHI VA XUSUSIYATLARI.....	82
<b>Usmanova Sevara Akmalovna</b>	
OILA VA KASB MUVOZANATI MUAMMOSI ILMIY TADQIQOTLARNING PREDMETI SIFATIDA.....	86
<b>Teshayev Sobit Sodik o'g'li</b>	
PEDAGOGLARDA IJOBIIY FIKR SHAKLLANISHIDA OPTIMIZMNING NAMOYON BO'L ISHI.....	90
<b>Sattarova Shaxnozaxon Qo'chqarovna</b>	
ПЕРФЕКЦИОНИЗМ КАК ФАКТОР ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ ОРГАНИЗАЦИИ.....	95
<b>Атабоев Н.И</b>	
O'SPIRINLIK DAVRIDA YUZAGA KELADIGAN NIZOLAR PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	100
<b>Maripova Asalxon Botiraliyevna</b>	
MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARDA TASVIRIY SAN'ATGA QIZIQISHLAR SHAKLLANISHI.....	105
<b>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</b>	



O'SMIRLARDA REFLEKSIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	110
<b>Rustamov Narzillo Raxmonovich</b>	
XORIJ PSIXOLOGIYASIDA "SHAXS O'Z IMKONIYATLARINI RO'YOBGA CHIQARISH" TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	113
<b>Alimova Yayra Hotamovna</b>	
PSIXOLOGIYADA PSIXOFIZIOLOGIK BILIMLARNING AHAMIYATI.....	119
<b>Yakubova Guzal Asatullayevna</b>	
PEDAGOGIK FAOLIYATDA KASBIY DEFORMATSIYA: SABABLARI VA OQIBATLARI.....	124
<b>Abdulxonidova Fotimaxon Abdulkopizovna</b>	
PSIXOLOGIYA FANIDA "STRESS" VA "STRESSGA BARQARORLIK" TUSHUNCHALARINING MAZMUNI.....	129
<b>Ergashev Hasanboy</b>	
YOSHLARNING OTA-ONALIK ROLIGA PSIXOLOGIK TAYYORLIGI DINAMIKASI.....	133
<b>Niyozmetova Munira Ibragimovna</b>	
MAKTABDA SAMARALI PEDAGOGIK USULLAR VA ULARNING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....	138
<b>Abdurahmonova Firuza Muhiddinovna</b>	
BOLALARDA KOGNITIV JARAYONNING RIVOJLANISHI.....	142
<b>N.X.Shakirova</b>	
OGNITIV JARAYONLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING TA'LIMDAGI ROLI.....	147
<b>Axmedov Davlatbek Saloxidin o'g'li</b>	
MULOQOTDA SHAXS YO'NALGANLIGI PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA.....	151
<b>Raximova E'tibor Rustamovna</b>	
OLIY TA'LIM MUASSASA TALABALARI TA'LIM FAOLIYATIDA O'QUV MOTIVATSİYASINING SHAKLLANISHIGA SUN'İY INTELLEKTNING TA'SIRI.....	156
<b>R.M.Baxtiyorov</b>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARING FAOLIYATLAR JARAYONIDA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	162
<b>Abduhalimova Durdonha Ilhomovna</b>	
BOKSCHILARNING JISMONIY VA TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	168
<b>Qon'irbaev Dastan</b>	
BOG'CHA YOSHIDAGI BOLALarda XAYOLNING RIVOJLANISHI.....	173
<b>Temirova Dilfuza Olim qizi</b>	
TALABALAR JAMOASIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING XORIJ ADABIYOTLARDA YORITILISHI.....	177
<b>Shukurullayev Xamidulla Nurilla o'g'li</b>	
O'SMIRLARDA AGRESSIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA OILAVIY MUNOSABATLARNING TA'SIRI.....	182
<b>Feruza Alimova Najimovna</b>	

# O'SMIRLARDA AGRESSIV XULQ- ATVOR SHAKLLANISHIGA OILAVIY MUNOSABATLARNING TA'SIRI

**Feruza Alimova Najimovna**

Toshkent amaliy fanlar universiteti "Psixologiya"  
kafedrasi katta o'qituvchisi

E-mail: alimovaferuza1010@gmail.com.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'smirlar orasida agressiv xulq-atvor shakllanishiga oilaviy munosabatlarning ta'siri bilan bog'liq jihatlar tahlil qilinadi. Hozirgi kunda jamiyatda agressiv xarakterli bolalar sonining ortib borayotgani jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Bu holat bolalarda agressivlik darajasining ortishi psixologiyaning dolzARB muammolaridan biriga aylanganligini ko'rsatadi. O'smirlar orasida agressiv xatti-harakatlarning shakllanishi murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, bu holatga oiladagi psixologik muhit, mojarolar, simbiotik munosabatlar hamda emotsiyonal yaqinlik darajasi sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** o'smir, agressiya, oilaviy mojarolar, simbiotik munosabatlar, psixologik yaqinlik.

**Abstract.** This article analyzes the influence of family relationships on the development of aggressive behavior in adolescents. The increasing number of children with aggressive traits has raised societal concern, making the issue of aggression a highly relevant topic in psychology today. The emergence of aggressive behavior in adolescents is a complex and multifaceted process influenced by various factors, including family dynamics, conflicts, symbiotic relationships, and the degree of emotional closeness among family members.

**Key words:** adolescent, aggression, family conflicts, symbiotic relationships, psychological closeness.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются аспекты влияния семейных отношений на формирование агрессивного поведения у подростков. Современное общество обеспокоено увеличением числа детей с агрессивными чертами характера, что обуславливает актуальность исследования уровня агрессии как важной психологической проблемы. Формирование агрессивного поведения у подростков представляет собой сложный и многофакторный процесс, на который оказывают влияние внутрисемейные конфликты, симбиотические отношения и уровень психологической близости между членами семьи.

**Ключевые слова:** подросток, агрессия, семейные конфликты, симбиотические отношения, психологическая близость.

## KIRISH

Agressiv xatti-harakatlar oila, tengdoshlar guruhi, ommaviy axborot vositasi ta'sirida aniqlanadi. Bola agressiv xatti-harakat namunalarini quyidagi uch asosiy manbara asoslanib to'playdi:

**Nosog'lom oila muhiti.** Bu kabi oilalarda ota-onalardan farzand o'rta sidagi munosabatning ijobji, psixologik iqlimda emasligi, farzandlar o'rta sidagi kelishmovchiliklar, oiladagi mojarolar, oilaviy hamohan-glikning mavjud emasligi bolalarda agressiv xulq-atvorning shakllanishiga olib keladi.

**Tengdoshlar guruhi.** Bolalar oiladan tashqarida o'z tengqurlari bilan bo'lgan munosabatda ham agressiv xatti-harakatlarni o'zlariga singdiradilar. Ko'pgina hollarda bolalar tengdosh do'stlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda o'zlarini agressiv boshqarishga urinadilar. Haddan tashqari agressiv bolalar o'z tengdoshlari orasidan siqib chiqariladilar. Bunday bolalar o'zlarini xo'rlangandek his qilib, o'zlarini kabi agressiv bolalar guruhidan joy topadilar. Bu esa muammoning ustiga yana muammo tug'dirmasdan qolmaydi.

**Ommaviy axborot vositalari.** OAVning agressivlik darajasiga bevosita ta'siri, albatta, ilmiy tadqiqot-

larda bahsli masala bo'lismiga qaramasdan, bugungi kunda bolalarga ta'sir etayotgan eng kuchli qurollardan biri ekanligi shubhasizdir. Bu borada internetning ta'siri tibbiyot, psixologiya, pedagogika uchun hali oxirigacha to'liq javobi topilmagan muammodir. Bolalar internet, ijtimoiy tarmoqlar orqali o'zlarining mental xususiyatlari mos kelmaydigan ma'lumotlar bilan ham tanishishlaridan tashqari, ularning ko'p vaqtini internet tarmoqlarida o'tkazishi psixofiziologik salomatligiga putur yetkazishi shubhasiz.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ijtimoiy muhitning yomonlashuvi, oiladagi psixologik muhitning nosog'lomligi, oilaviy munosabatlarda ota-onva farzand o'ttasida o'zaro tushunishning yo'qligi, bolalarga nisbatan psixologik yaqinlik munosabatining mavjud emasligi, qat'iy jazolar bolalarda agressiv xulq-atvorning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Shu o'rinda, oiladagi nosog'lom (har qanday) psixologik muhit va oilaviy tarbiyadagi yo'l qo'yilayotgan nuqsonlar ta'sirida o'smirlik yoshidagi bolalarning ijtimoiy dezadaptatsiyasi yuzaga kelmoqda.

Oila taraqqiyotining keyingi sifatiy bosqichga o'tish imkoniyati oila a'zolarining (eng avvalo er-xotinlarning) bir-biri bilan, bolalar bilan va h.k. bo'lgan munosabatlarning an'anaviy usullarini, shuningdek, oldingi bosqichda erishilgan barqarorlikni ham psixologik jihatdan qurban qilishga tayyorligi bilan belgilanadi. V.K. Loseva va A.I. Lunkov (9) mazkur tayyorlik har bir taraqqiyot uchun tabiiy bo'lgan "ertasini ko'rolmaslik" kabi xavotirlilikni vujudga keltiradi. Masalan, bolaning ulg'ayishi va mustaqillikka intilishi paytidagi ota-onadan uzoqlashuvi ota-onaning o'zaro turmushni davom ettirishga ko'mak beruvchi, shunchaki bola boqishdan va uni tarbiyalashdangina iborat bo'Imagan, yangi qadriyatlarni o'zlashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oilaviy munosabatlar taraqqiyotining normativ bosqichlarini tavsif etarkan, F. Pyorlz: "emotsional munosabatlar", "rolli munosabatlar", "kontakt", "ketish" kabi tushunchalardan foydalanadi. Emotsional va rolli munosabatlar uzviyliги shaksiz bo'lsa-da, biroq oila taraqqiyotining har qanday muayyan bosqichida u yoki bu konkret munosabat katta ahamiyat kasb etib, o'z ustuvorligini namoyon qiladi. Shunday pallalarda oilaning boshqa a'zolari yo kontaktga (munosabatlarni qayta bog'lashga, masofani qisqartirishga) yoki ketishga (masofani uzaytirishga) intilishadi.

Bu holatdan oiladagi destruktiv munosabatlar bolalarning ijtimoiy dezadaptatsiyasiga sabab bo'lib, ularning xulq-atvorida agressivlikning o'ziga xos shakllarini namoyon qilishi mumkin, deb taxmin qilish mumkin.

## TAHLIL VA NATIJALAR

14–16 yoshdagи o'smirlarda o'tkazilgan psixologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, jismoniy agresiya, ya'ni boshqa bir odamga qarshi jismoniy kuch ishlatalish va aybdorlik hissi (autoagressiya — o'zi va atrof-muhit o'ttasidagi munosabatlarda kuzatiladigan aybdorlik hissi, o'ziga qarshi qaratilgan xatti-harakat, ya'ni o'zini ayblash: "Men undog'man, men bundog'man", deb ich-etini yeish) agressivlikning boshqa shakllaridan ustivor ekanligi ko'zga tashlanmoqda. Jismoniy agressiyaning o'rtacha arifmetik qiymati 71,7 ball bo'lsa, aybdorlik hissi — 69,3 ballni tashkil qildi.

Shuningdek, verbal agressiyaning, ya'ni salbiy his-tuyg'ularni og'zaki tarzda ifodalash (janjal, qiy-chuv solish, so'kinish, tahdid, la'nat aytish, qarg'ish kabilar) o'rtacha arifmetik qiymati — 62,93; sergu-monlik (ishonchszilikka moyillik, odamlar bilan ehtiyoj bo'lib munosabat qilish, atrofdagilar zarar yetkazishi mumkin degan o'y bilan yashash) — 63,25; negativizmnning (voqelikka salbiy munosabatda bo'lish, hamma narsani inkor etish — rahbariyat yoki obro'ga qarshi yo'nalgan xulq-atvor, talab, tartib, qonunlarga qarshi passiv monelikdan faol xatti-harakat darajasigacha borib yetishi mumkin) — 61,0; g'ashlik (jizzakilikka moyillik, arzimagan narsaga portlab ketish, keskinlik, qo'pollik qilish) — 55,55; alamzadalikning (kimdandir yoki butun olamdan alamzadalik, hayolan yoki chindan ham keltirilgan iztirob, g'azab, atrofdagilarga nisbatan nafrat, hasadning namoyon bo'lishi) — 50,05; orqavorotdan bo'ladigan yoki bilvosita agressiyaning (boshqa shaxsga qaratilgan g'iybat, piching ko'rinishidagi bilvosita olinadigan alam, nafratning yo'nalishi aniqlanmaganligi ham bo'lishi mumkin: yer tepish, baqirib-chaqirish) o'rtacha arifmetik qiymati esa 49,83 ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, ota-onalar tomonidan bolaning rad etilishi jismoniy agressiya, negativizm va alamzadalik kabi agressiv xulq-atvor shakllari bilan statistik ahamiyatli ravishda bog'liq ekani isbotlandi.

Ijtimoiy istalgan xulq-atvorning talab etilishi ham, o'z navbatida, jismoniy, verbal agressiya, negativizm, aybdorlik hissi va alamzadalik kabi agressiv xulq-atvor bilan statistik ahamiyatli ravishda bog'liq ekani isbotlandi.

Simbiotik munosabatlar bir jihatdan destruktiv munosabatlar sirasiga kirmaydiganday ko'rinsa-da, bunday munosabatlarda ham o'ziga xos destruktivlik mavjudligi, uning jismoniy agressiya, verbal agressiya, negativizm va alamzadalik kabi agressiv xulq-atvor bilan statistik ahamiyatli ravishda bog'liq ekani o'z isbotini topdi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bolalar bilan avtoritar munosabatlarni o'rnatish, o'z navbatida, jismoniy agressiya, negativizm, alamzadalik kabi agressiv xulq-atvor shakllarining paydo bo'lishiga ta'sir etishi o'z isbotini topdi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlashimiz kerakki, oiladagi munosabatlar vaziyatlarning noadekvat idrok etilishi, ixtiloflarning chastotasi, sifati va davomiyligida aks etishi tabiiydir. Bunday ixtiloflarning aksariyati negizida sevilish, hokimiyatga intilish va tushunilish kabi ehtiyojlarning noadekvat (kutilganday, orziqiganday emas) qondirilishi yotadi. Bizlar amalga oshirgan ilmiy manbalar tahlili oiladagi destruktiv munosabatlarning eng keng tarqalgan ko'rinishlarini farqlab olish imkoniyatini berdi. Bular: emotsional jihatdan begonalashgan, asabiy-tarang, simbiotik, sohta ittifoq, giperprotektiv.

**Emotsional jihatdan begonalashgan.** Oiladagi munosabatlar sovuq, bosiq, yo o'ta yaqin, yo muayyan bir masofada bo'ladi. Oila a'zolari bir-birlarining shaxsiy hayotiga yo o'ta kuchli jalb etilgan, yo umuman kiritilmagan.

**Asabiy-tarang.** Oilaning biron-bir a'zosi oilaning qolgan a'zolari ustidan ustuvorlik qilish bilan birga ularga qat'iy zulm o'tkazadi.

**Simbiotik.** Bunday oilalarda, ayniqsa noto'liqlarida, uning a'zolari o'rtasida (ko'pincha ona va bola o'rtasida) simbiotik qovishuv ro'y berib, psixologik tobe'likning jiddiy ko'rinishlarini paydo qiladi. Simbiotik qovishuvda bo'lgagan qolgan oila a'zolariga ikkinchi darajali o'rinn beriladi. Rigid, o'zaro munosabatlarning qat'iy stereotipizatsiyasi (andozaga aylanishi) tufayli oilaning har bir a'zosiga mudom saqlanib qoladigan rollar belgilanadi: bolalar hamisha bola bo'lib qoladilar, oilaning yetuk a'zolarining muayyan nuqsonlari o'ziga xos oilaviy me'yorga aylantiriladi ("nima qilar edik, peshonada, bukrini go'r tuzatadi, nima bo'lsa ham otang", "sen doim zarakunanda bo'lgansan, kimga torganingni ham bilmayman" va h.k.). Oshkora liderdan tashqari qolgan barcha oila a'zolarining emotsional xomligi va infantilizatsiyasi bunday oilalarning asosiy alomatidir.

**Sohta ittifoq.** Rolli tizimning rigidligi, o'zaro tobe'likning yuqori darajasi nima bo'lganda ham "obro'ni saqlab qolishga" qaratilgan ("shavla ketsa ketsin, obro' ketmasin"). Bunday oilaning barcha a'zolari bir-birlarini yangi va yangi muvaffaqiyatlarga erishishga da'vat qilishdan iborat. Bularga ularning real imkoniyatlari, salohiyatlari bor-yo'qligi bilan hech kimning ishi bo'lmaydi. Odatda, bunday orzu-xavaslar ortida ota-onalar o'zları erisholmagan ambitsiyalari (armonlari) turadi.

**Giperprotektiv:** rigid yoki xaotik (qat'iy yo betartib). Rigid oilalarga mudom cheklovchi nazorat (bosim o'tkazuvchi giperkompensatsiya)ni yoki o'ta kuchli g'amxo'rlik va muhofaza (g'amxo'rlik ko'rinishidagi giperkompensatsiya)ni saqlab qolishga qaratilgan rollarning qat'iy taqsimoti xos. Xaotik oilalarni unda ustuvorlik qiluvchi shaxsning xulq-atvorida va o'ziga tobelarga qo'yadigan talablarida izchillikning mavjud emasligi farqlab turadi.

Simbiotik, sohta ittifoq, giperprotektiv munosabatlar mavjud oilalarda o'zini oilaning boshqa a'zolariga "qurban" qilganlar borligi ("qurbanlik qo'zilar") qayd etilgan. Ular o'zlarining shaxsiy hayotidan, xususiy rejalaridan oila manfaatlari yo'lida qurban qilishgan bo'ladilar. Vaholanki, ularga shundoq ham erishish imkoniyati bo'lgan. Bundan tashqari, mazkur "qurbanlar" ushbu faktini oilaning qolgan a'zolariga muttasil eslatib turishadi.

Bizlar oiladagi shaxsni qoniqtirmayotgan o'zaro munosabatlarga javoban yuzaga keladigan mazkur murakkab reaksiyalar ba'zan muayyan darajada anglangan bo'lsa, ba'zan g'ayrishuuriy tarzda amalga oshib, bir-biri bilan uzviy bog'liq deb hisoblash mumkin. Zotan, har qanday noadekvat, nevrotik xulq-atvor ma'lum sabablarga ko'ra qondirish imkoniyatini bermayotgan insонning anglanmagan ehtiyojini u yoki bu tarzda qondirgani bois manfaatlidir.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Каримова В. Оилавий ҳаёт психологияси: Ўқув\_\_ қўлланма. - Т.: 2006. -142 б.
2. Берк Л. Развитие ребенка. – 6-е изд. – СПб: Питер. 2006. – 1056с.
3. З.Богдалова Г.А. Эмоциональная устойчивость и ее формирование у учащихся раннего подросткового возраста: Автореф канд.психол.наук. – Ташкент: – НУУз. 2000. 18с
4. 4.Волков Б.С. Возрастная психология. В 2-х ч. Учеб. пособие для ВУЗов, спец. ОПД.Ф.01-Психология / Под ред. Б.С.Волкова. – М.: ВЛАДОС, 2005. Ч.2. – 343 с.
5. Рейковский Я. Экспериментальная психология эмоций. М., 1979. – 182с.
6. Рогов Е.И. Эмоции и воля. – М.: Гуманит.изд. центр ВЛАДОС, 2001. – 321с.

ДОШКОЛЬНОЕ  
PRE-SCHOOL

МАКТАБГАЧА

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Alibek ZOKIROV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin SOBIR O'G'LII

---

**2025. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'llimi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Toshkent davlat pedagogika universitetining murojaatiga (24-04-2025 y., №11-05-2566/01) ko’ra, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilganligini ma'lum qiladi.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiyasi (25-05-2025 y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (07-05-2025 y., №5/6); OAK Rayosatining qarori (08-05-2025 y., №370/5).

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.